



## "The Plague of Doves": History of Writing

Parvina MIRZAYEVA<sup>1</sup>

Bukhara State University

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received March 2025  
Received in revised form  
15 March 2025  
Accepted 25 April 2025  
Available online  
15 May 2025

#### **Keywords:**

L. Erdrich,  
novel,  
narrative,  
American literature,  
title,  
theme,  
local,  
indigenous,  
Ojibwe,  
"The Plague of Doves".

### ABSTRACT

L. Erdrich is considered one of the most profound and thoughtful writers of our time. In her novels, she does not merely describe characters but carefully analyzes and portrays the relationships between them, as well as their connections with nature, society, and community. This article examines the history of the writing of "The Plague of Doves", the influence of the author's autobiography on the creation of the novel, and discusses the factors that contributed to the emergence of this literary work.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp151-155>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## "The Plague of Doves" romani: yozilishi tarixi

### ANNOTATSIYA

#### **Kalit so'zlar:**

L. Erdrik,  
roman,  
rivoya,  
AQSH adabiyoti,  
sarlavha,  
mavzu,  
mahalliy,  
tubjoy,  
Ojibve,  
"The Plague of Doves".

L. Erdrik ijodida teran mulohaza yurituvchi yozuvchilardan sanalaib, romanlarida faqat shaxslarni tasvirlash bilan cheklanmaydi; u personajlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning tabiat, jamiyat va jamoa bilan bo'lgan aloqalarini ham sinchiklab tahlil qiladi va tasvirlaydi. Quyidagi maqolada "The Plague of Doves" ("Kabutarlar vabosi") romani yozilishi tarixi, muallif avtobiografiyasining asar yaralishida ta'siri, ijod namunasini vujudga keltirgan omillar muhokama qilinadi.

<sup>1</sup> Independent Researcher, Bukhara State University. E-mail: [mustafoyevaparvina@icloud.com](mailto:mustafoyevaparvina@icloud.com)

## Роман «Чума голубей»: история написания

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

Л. Эрдрик,  
роман,  
повествование,  
Американская литература,  
заголовок,  
тема,  
местный,  
коренной,  
оджибве,  
«Чума голубей».

Л. Эрдрик считается одной из самых глубоких и вдумчивых писательниц современности. В своих романах она не ограничивается лишь описанием персонажей, но тщательно анализирует и изображает взаимоотношения между ними, а также их связи с природой, обществом и общиной. В данной статье рассматривается история написания романа «Чума голубей» (“The Plague of Doves”), влияние автобиографии автора на создание произведения, а также обсуждаются факторы, способствовавшие появлению этого литературного труда.

### KIRIS

Mahalliy Amerika adabiyoti (Native American literature) rivojlanishi nafaqat badiiy asarlarning gullab-yashnashiga olib keldi, balki adabiy tanqid va nazariyalar rivojiga ham turtki berdi. Mazkur adabiyot doirasidagi mualliflar, jumladan L. Erdrik, asosan oʻz oʻquvchilariga taqdim etayotgan mazmun bilan faol ishlaydilar, ayniqsa ogʻzaki anʼana, nutq va yozma rivoyatlar oʻrtasidagi murakkab oʻzaro bogʻliqliklarga eʼtibor qaratishdi. L.Erdrik ijodida teran mulohaza yurituvchi yozuvchilardan sanalaib, romanlarida faqat shaxslarni tasvirlash bilan cheklanmaydi; u personajlar oʻrtasidagi munosabatlar, ularning tabiat, jamiyat va jamoa bilan boʻlgan aloqalarini ham sinchiklab tahlil qiladi va tasvirlaydi. Uning asarlari nafaqat individual psixologiyani, balki guruh ichidagi psixologik dinamikalarni ham oʻrganadi.

### METODOLOGIYA

“Narrative Change: Postmodern Discourse on Native American Indian Literatures” nomli kitobda postmodern adabiyot mavzusiga bagʻishlangan koʻplab ilmiy maqolalar jamlanib, kitobdagi “Opening the Text: Love Medicine and the Return of the Native American Woman” (“Matnni ochish: ‘Love Medicine’ va mahalliy amerikalik ayolning qaytishi”) bobida Robert Silberman L.Erdrikning “Love Medicine” romanini tahlil qilish orqali mahalliy Amerika adabiyotining taraqqiyotiga postmodernistik yondashuv orqali nazar tashlaydi. Muallif L. Erdrikning asarlarini boshqa mahalliy amerikalik yozuvchilarning ijodi bilan solishtirib, uning romanlarida kuzatiladigan ochiq tuzilmalarga – yaʼni voqealar rivoji va rivoyat uslubining qatʼiy chegaralarga boʻysunmasligiga urgʻu beradi. Shuningdek, Silberman L. Erdrikning U.Folkner ijodiga boʻlgan hurmati va yaqinligini taʼkidlaydi. U L. Erdrikning “Love Medicine” romani bilan U.Folknerning “As I Lay Dying” (“Oʻlimim chogʻida”), “Absalom, Absalom” va “The Sound and the Fury” (“Shovqin va gʻazab”) kabi mashhur romanlari oʻrtasida oʻxshashliklar mavjudligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, Silberman L. Erdrik lotin-amerika adabiyotidan, ayniqsa Gabriel Garsia Markes ijodidan bevosita ilhom olganini qiziqarli tarzda qayd etadi va uning yozuv uslubi hamda ohangida shu taʼsirlar sezilishini alohida taʼkidlaydi [12].

### NATIJALAR

2008-yilda yozilgan “The Plague of Doves” (“Kabutarlar vabosi”) romani yigirmanchi asrda keng tarqalgan irqchilik mavzusiga va uning hozirgacha saqlanib qolgan oqibatlariga chuqur eʼtibor qaratadi. Asar syujeti XIX asrning 1890-yillarida Shimoliy Dakotada yuz bergan voqealar atrofida qurilgan. Piter G. Baydler (Peter G. Beidler) oʻzining

“A Documentary History of the 1897 Killings That Inspired Louise Erdrich’s ‘The Plague of Doves’” (“1897-yildagi qotilliklar hujjatli tarixi: Luiza Erdrichning ‘The Plague of Doves’ asariga ilhom bergan voqealar”) nomli kitobida L. Erdrik ushbu asarda Spayser (Spicer) oilasiga oid fojiali voqealarni (roman matnida Loxren (Lochren) oilasi deb nomlangan) qanday badiiy talqin qilganini keng yoritadi. Ushbu voqealarga ko’ra, oila a’zolari vahshiylarcha o’ldiriladi, so’ngra esa uch nafar begunoh tubjoy amerikalik asossiz ayblovlar asosida ommaviy qatl etiladi. L. Erdrik bu tarixiy hodisalarni chuqur ruhiy va ijtimoiy tahlil orqali qayta tasvirlaydi va adolat, irqchilik va jamiyat xotirasi kabi muhim mavzularni o’rtaga tashlaydi [1]. L. Erdrik voqealarning badiiy talqinida ayrim tafsilotlarni o’zgartirgan, ya’ni u tarixiy haqiqatga to’la tayanmasdan, syujetni yanada ta’sirchan qilish maqsadida ayrim jihatlarini o’z ijodiy qarashlariga mos ravishda qayta ishlab chiqadi. Bu uslub orqali u real voqealarga asoslangan bo’lsa-da, ularni adabiy jihatdan boyitib, o’quvchiga kuchliroq hissiy va ijtimoiy ta’sir ko’rsatishga erishadi.

L. Erdrikning ta’kidlashicha, asarlariga xos bo’lgan jihatlardan biri shuki, u tasvirlagan rezervatsiyalar, shaharchalar va obrazlar ko’pincha o’z tasavvuri mahsulidir. Biroq, ba’zi istisnalar mavjud – masalan, tarixiy shaxs Lui Riel va Holi Trek (Holy Track) obrazi [5]. Holi Trek (Holy Track) – bu roman qahramonlaridan biri bo’lib, yosh bola sifatida begunoh tarzda qotillikda ayblanadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan osib o’ldiriladi. Biroq yillar o’tib, u aslida aybsiz bo’lgani, haqiqiy jinoyatchi esa ruhiy nosog’lom oq tanli erkak bo’lgani aniqlanadi.

L. Erdrik ijodida ko’pincha tubjoy xalqlarning hayoti va qadriyatlariga “sivilizatsiyalashgan” jamiyat a’zolarining qanday munosabatda bo’lishlarini tadqiq qiladi va buni o’z asarlarida chuqur badiiy tasvirlaydi. Uning “The Plague of Doves” (“Kabutarlar vabosi”) romanida Evelina, Marn Wolde, Shamengwa, sudya Antone Basil Coutts, doktor Cordelia Loxren kabi qahramonlar orqali tubjoy amerikaliklar va ularning yerlarida yashab kelayotgan g’arbiy ko’chmanchilar o’rtasidagi tarixiy va madaniy ziddiyatlar yoritiladi.

Roman an’anaviy boblar asosida tuzilmagan – u turli qismlarga bo’linadi va har bir qismda voqealar muayyan personajlar nigohi orqali hikoya qilinadi. Bu uslub U.Folknerning mashhur asari “As I Lay Dying” (“O’limim chog’ida”)ga juda o’xshash bo’lib, u ham o’n birta turli personaj nuqtai nazaridan hikoya qilinadi. “The Plague of Doves” ham ko’p personajli hikoya uslubidan foydalanadi va quyidagi qismlarga bo’lingan:

| ROMAN BOBLARI             | BOBDAGI FASLLAR                                                            |
|---------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| Solo                      |                                                                            |
| Evelina                   | The Plague of Doves, A Little Nip, Sister Godzilla, Holy Track, Bitter Tea |
| Judge Antone Basil Coutts | The Way Things Are, Town Fever, The Wolf, Come In                          |
| Marn Wolde                | Satan: Hijacker of a Planet, The Daniels, The Kindred                      |
| Evelina                   | The 4-B’s                                                                  |
| Judge Antone Basil Coutts | Shamengwa                                                                  |
| Evelina                   | The Reptile Garden, All Soul’s Day, Road in the Sky                        |
| Judge Antone Basil Coutts | The Veil, Demolition                                                       |
| Doctor Cordelia Lochren   | Disaster Stamps of Pluto                                                   |

Romaning dastlabki bo’limlaridayoq kamsitish, ijtimoiy ziddiyat va ojizlik holatlari yorqin tasvirlanadi. L. Erdrik hikoyani bosh qahramon Evelinaning bobosi va buvasining hayotiy tarixini eslab o’tish orqali boshlaydi. Evelina bobosini – Ojibve tilida “Mooshum” (Musham) deb ataydi – va muallif uni hayotining eng muhim kunini hikoya qiluvchi rivoyachi sifatida tasvirlaydi.

Evelinaning bobosi Seraf Milk (Seraph Milk) o'z hayotini xotirlab, 1896-yilda sodir bo'lgan "kabutarlar vabosi" davriga – aynan o'sha paytda bo'lajak rafiqasi Junessi (Junesse) bilan uchrashganiga – qaytadi. Kabutarlar vabosi davri bu yerlik aholi uchun og'ir kunlar bo'lib, ko'plab fojialar va ijtimoiy nohaqliklar bilan esda qolgan. Seraf va Junessi yoshlik paytida to'ylariga to'sqinlik qiluvchi muammolar bilan yuzma-yuz kelishadi va bu sababli o'z uylaridan qochishga majbur bo'ladilar. Bu jarayonda erkaklardek kiyinadigan va qat'iy xarakterga ega Maude Black ularga boshpana beradi va ular o'n yetti yoshga to'lguncha birga yashashlariga imkon yaratadi, so'ng esa ular turmush qurishadi.

Ushbu voqea orqali L.Erdrik bir qotillik voqeasiga ishora qiladi va o'sha davrda Maude Blackning uyida yashayotgan tubjoy amerikaliklar qanday qilib shubha ostiga olinganini tasvirlaydi. Evelinaning bobosi va buvasi irqiy kamsitishlarga duch keladi va o'zlarini himoyasiz, zaif holatda topadilar. Bu epizod roman davomida tubjoy qahramonlar qanday adolatsizliklarga uchraganini, ular qanday qilib irqchilik qurboniga aylanganini ochiq va ta'sirchan tarzda namoyon etadi.

Roman sarlavhasi ham kitobxon e'tiborini tortishi shubhasiz. Ayniqsa, undagi ikki so'z – "kabutarlar" (doves) va "vabo" (plague) – diqqat qaratishga undaydi. "Vabo" atamasi odatda ma'lum bir hududda keng tarqaladigan kasallik yoki ofatni anglatadi. "Kabutarlar" esa, aksincha, ko'plab madaniyatlarda poklik va tinchlik ramzi sifatida qaraladi. Bu ikki so'zning qarama-qarshi ma'nolari kishini o'ylantirib qo'yadi – muallif nima sababdan aynan shunday nomni tanlagan ekan? Bu savolga javob topishda Katelyn Mathewning tahlili katta yordam beradi. Uning tahlili roman sarlavhasidagi so'zlarning ma'nolarini ochib berishga xizmat qilishi bilan birga, asar davomida uchraydigan boshqa hayvon obrazlarining ramziy mazmunini ham tushunishga yordam beradi.

Katelyn Mathew o'z tahlilida "vabo" (plague) tushunchasini chuqur o'rganib, uning diniy mazmunlariga e'tibor qaratadi. U xususan, xristianlik tarixida vaboning, ayniqsa Injilda tasvirlangan chigirtka vabosi kabi voqealarning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi. Tanqidchining fikricha, bunday vabo faqat jismoniy halokat emas, balki ma'naviy sinov, tozalash yoki ogohlantirish ramzi sifatida ham qaraladi. Katelyn Mathew shuningdek, bunday vabodan keyingi holatlarni ham tahlil qilib, L. Erdrik o'z o'quvchisini ramzlar orqali romanda nazarda tutilgan asosiy mazmunni anglash sari yo'naltirayotganini ta'kidlaydi. Ya'ni, "vabo" – bu faqatgina voqea emas, balki jamiyat, insonlar va ularning o'tmishdagi adolatsizliklarga munosabatini anglashga olib boruvchi badiiy vositadir.

**Xulosa** qilib aytganda, L.Erdrik Mahalliy Amerika adabiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan yozuvchilardan biridir. U adabiy elchi sifatida Ojibwe qabilalarining madaniy merosini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynamoqda. Uning ko'plab romanlari orasida "The Plague of Doves" ("Kabutarlar vabosi") alohida o'rin tutadi. Ushbu asar nafaqat tubjoy xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va merosini yoritadi, balki murakkab mavzular va insonlararo munosabatlarni tarixiy kontekstda ham, zamonaviy hayotda ham o'rganishga zamin yaratadigan ta'sirchan va o'ziga xos badiiy asardir. L.Erdrikning bu romani o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi va tubjoy amerikaliklar hayotining turli jabhalarini chuqur his etishga imkon beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Beidler, Peter G. *Murdering Indians: A Documentary History of the 1897 Killings That Inspired Louise Erdrich's 'The Plague of Doves'*. McFarland & Company, 2014.
2. Bruchac, Joseph. *Native North American Literary Companion*. Visible Ink, 1998.

3. Coltelli, Laura. *Winged Words: American Indian Writers Speak*. University of Nebraska Press, 1990.
4. Chavkin, Allan. *The Chippewa Landscape of Louise Erdrich*. The University of Alabama Press, 1999.
5. Erdrich, Louise. *The Plague of Doves*. HarperCollins, 2008.
6. Jacobs, Connie A. *The Novels of Louise Erdrich: Stories of Her People*. Peter Lang, 2001.  
<https://archive.org/details/novelsoulouiseer0011jaco/page/n12/mode/1up?view=theater>
7. Louise Erdrich's Justice Trilogy: Cultural and Critical Contexts. Edited by Connie A. Jacobs & Nancy J. Peterson. Michigan State University Press, 2021.
8. Ganiyeva O. X. XX ASR AQSH REGIONAL ROMANI BADIY O 'ZIGA XOSLIGI //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 43-45.
9. GANIEVA O. Specificity of XX century American realistic fiction. – 2024.
10. Rainwater, Catherine. Reading between Worlds: Narrativity in the Fiction of Louise Erdrich. *American Literature*, 1990, Vol. 62, No. 3. pp. 405-422.  
<https://www.jstor.org/stable/2926739>
11. Садуллаев Ф. Б. XX аср ақш модерн адабиётининг тарихий ҳамда ижтимоий негизлари //scientific reports of bukhara state university. – Т. 171.
12. Vizenor, Gerald. *Native American Literature. A Brief Introduction and Anthology*. HarperCollins College Publishers, 1995.